

Intellectual mulk obyektlariga huquqlarni topshirish bo'yicha shartnomalar

Joriy yil 20-may kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida Intellectual mulk agentligi bilan hamkorlikda o'tkazilgan seminar xuddi shunday nomlandi. Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi vakillari, ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlari ishtirok etdi.



Intellectual mulk agentligi huzuridagi "IP-CENTER" o'quv markazi bosh mutaxassisi Abdujalil O'rinboyev seminar ishtirokchilariga intellektual mulk obyektlariga huquqlarni topshirish bo'yicha shartnomalar tuzish, litsenziya shartnomalari, huquqni boshqa shaxsga o'tkazish shartnomalari va ularni ro'yxatdan o'tkazish qoidalari haqida ma'lumot berdi. Seminar so'nggida ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.

